

ABDULLA AVLONIYNING TA'LIM TIZIMIMIZGA
QO'SHGAN HISSASI

O'rinboyeva Mubinabonu Iqboljon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bodqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada marifatparvar, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniyning ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi, bugungi kundagi ahamiyati, asarlaridagi ta'limiy qarashlar yoritilgan

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, ta'lim, notiqlik, Turkiy guliston yoxud axloq, Pedagogika, maktab

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy, XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobidir. U 1878 yilning 12 iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida, to'quvchi Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. Abdulla Avloniyning ota-onasi savodli kishilardan bo'lganlar. U O'qchidagi eski maktabda, so'ng madrasada o'qidi (1885–1886). Abdulla Avloniy yozda ishlab o'tanasiga yordamlashar, boshqa vaqtda o'qir edi. U mustaqil mutolaa bilan shug'ullandi. O'ta iqtidorli bo'lgan Abdulla Avloniy 15 yoshidan she'rlar yoza boshlaydi. Arab, fors, rus tillarini o'rgandi. Orenburg, Qozon, Tiflisdagi chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib bordi. Qisqa muddat ichida u ma'rifatparvar sifatida tanildi va ijtimoiy-madaniy harakatchilikning faol namoyandalaridan biriga aylandi.

XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergan eng muhim o'zgarishlardan biri maktab-o'quv ishlarida o'zgarish bo'ldi. Avloniy bu davrda jadidchilik harakatiga qo'shilib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanildi. U Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi, ta'limni real turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishiga alohida e'tibor berdi. Uning «Birinchi muallim» («Muallimi avval», 1909), «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy», 1912) nomli darsliklari, «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Gulistoni maktab» (1917), «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (1909-1916, 6 qism) kabi qo'llanmalari maktablarda o'qitilgan.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari katta ahamiyatga molik. XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida uning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari shular jumlasidandir.

Bu asar axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asar bo'lib, unda insonlarni "yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi" bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatdan bu asar o'ziga xos tarbiyaviy asar hisoblanadi.

Abdulla Avloniy 1907-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o'quv asbob va jihozlarini o'zgartirdi, o'z qo'li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag'al kishilarning bolalari bo'lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida "Jamiyati xayriya" tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi. Avloniyning maktabi o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qiladi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish hamma vaqt ta'lim-tarbiya tizimining birlamchi va asosiy vazifasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Abdulla Avloniy atoqli metodist olim sifatida "Turkiy guliston..." asarida o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish masalasiga, voizlik (notiqlik) san'atini egallashga alohida e'tibor qaratadi. Muallif fikricha, har bir o'quvchi ona tilida o'z fikrini aniq, ta'sirchan, shu bilan birga, chiroyli bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun esa o'quvchi ona tilining nozik, go'zal jihatlarini puxta egallagan bo'lishi kerak: "Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy oqiz orasidagi tilni (og'zaki nutqni U. D.) ham saqlamak lozimdur" - deydi.

Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadur gon tarozisidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar.

U o'z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob-kitob, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi. Adibning har bir fanda ilg'or har bir sohada yuqtuqlarga bo'y ekanligi bilan o'z maqsadi yo'lida tinim bilmaganlarini, maqsadlariga erishib nafaqat o'z hayotlarini balki o'z ona vataniga ulkan ishlar qilib, iz qoldirganlarini guvohi bo'lamiz. Abdulla Avloniy 1917-yil to'ntarishidan keyin, 1918 yildan boshlab Respublikamizda o'qituvchilar uyushmasi, qorovullar, tunukachilar, konchilar, hunarmandlar va bosmaxona xodimlarining kasaba uyushmalarini tashkil qilib, ularga rahbarlik qiladi. Adib har doim o'z vaqtini ezgu va ulug' ishlarga sarf etganlar va buni bizga ham tavsiyalarida qoldirganlar. obiq eski shahar ishchi dehqon Sovet Ijroiya Komitetiga rais qilib saylanadi. Avloniy Turkiston Respublikasi milliy Komissariyatining mas'ul xodimi sifatida milliy urf-odatlar va yangicha madaniy normalar hamda qonunlarga doir masalalar bilan shug'ullanadi. 1919-1920 yillarda Avloniy Afg'onistonning Hirot shahrida Sovet elchixonasida bosh konsul bo'lib ishladi. Abdulla Avloniy konsul bo'lib ishlagan yillar oz' yurtlari va Afg'oniston xalqlari orasida do'stona munosabatni shakillantirishda

jonbozlik ko'rsatib Afg'on shohi tamonidan ham izzat va e'tiborga musharaff bo'lgan adiblardan biri bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Avloniy ijodiy merosi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining targ'ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma'naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo'lib xizmat qiladi. Bu ulug' adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi, desak adashmaymiz